ISSN: 2181-3906
2025

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 4 / ISSUE 6 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN MAJBURIYATLAR

Raxmatullayeva Parizod
TerDU Yuridik fakulteti 2-bosqich 123-guruh talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.15740636

***Annotatsiya**. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning huquqiy asoslari va ularni tartibga soluvchi tamoyillar muhim hisoblanadi. Chunki zarar yetkazuvchining javobgarlik tamoyillari, jumladan, g‘ayriqonuniy harakatlar yoki harakatsizlik oqibatida yuzaga kelgan zararlarni qoplash majburiyati tahlil qilishimiz mumkin. Zarar yetkazuvchining aybsizligi javobgarlikdan ozod qiluvchi asos sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda qonun bu printsipdan istisno xolatlarni keltiradi. Bundan tashqari, zarar yetkazish xavfini oldini olish uchun qonunda zararli faoliyatni to‘xtatib turish yoki tugatishga oid sud vakolatlari belgilangan.*

Bundan tashqari zarar yetkazuvchining harakatlari jabrlanuvchining roziligi asosida sodir etilgan va jamiyat axloqiy tamoyillariga zid bo‘lmagan taqdirda, zarar qoplanmasligi mumkinligi ham mumkin. Shunday ekan zarar yetkazishni oldini olish huquqiy tizimning ijtimoiy adolatni ta’minlash va manfaatlar muvozanatini saqlashga qaratilgan asosiy vositalaridan biri sifatida ko'riladi desak maqsadga muvofiqdir.

***Kalit so'zlar:** Zarar yetkazish, oxirgi zarurat, zaruriy mudofaa, mol-mulkka ziyon yetkazish, qonuniy harakatlar, javobgarlik.*

Odamlarning ishonchini yo‘qotish — zarar yetkazishning eng katta shaklidir.
(Konfutsiy)

Zarar bu – bir shaxsning noqonuniy harakati yoki harakatsizligi natijasida boshqasiga yetkazilgan moddiy yoki nomoddiy yo‘qotish hisoblanadi. Zarar bu mulkning yo‘q qilinishi yoki shikastlanishi natijasida yetkazilgan yo‘qotish desak mubolag'a bo'lmaydi yoki zarar ko‘rgan shaxs o‘ziga tegishli bo‘lgan qonuniy huquqlarni amalga oshira olmagani natijasida olishi mumkin bo‘lgan, ammo olmagan daromadlardir.

Odatda zarar yetkazgan shaxs uni to‘liq hajmda qoplashga majburdir hamda zarar yetkazgan shaxsning aybi isbotlanishi lozim. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar asosan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan amalga oshiriladi, unda g‘ayriqonuniy harakat (yoki harakatsizlik) natijasida fuqaro yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda, zarar yetkazuvchi tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi

shart. Shuningdek qo‘shimcha tovon to‘lash majburiyati zararni qoplashdan tashqari, qonun yoki shartnoma asosida jabrlanuvchiga qo‘shimcha ravishda tovon to‘lash majburiyati belgilanishi mumkin. Agar zarar yetkazuvchi shaxs zarar uning aybisiz yetkazilganligini isbotlasa, u zararni to‘lashdan ozod qilinishi mumkin. Ammo ayrim hollarda, qonun zarar yetkazuvchining aybi bo‘lmasa ham, uni zarar qoplashga majbur qilishi mumkin. Qonuniy harakatlar tufayli yetkazilgan zarar esa faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda qoplanishi mumkin. Zarar yetkazishda jabrlanuvchining roziligi ham muhim ahamiyat kasb etadiAgar zarar jabrlanuvchining o‘z iltimosi yoki roziligi bilan yetkazilgan bo‘lsa va bu harakatlar jamiyatning axloqiy tamoyillarini buzmasa, zarar yetkazuvchi zarar qoplashdan ozod qilinishi mumkin. Zarar yetkazishni oldini olish ham mumkin. Agar biror faoliyat kelgusida zarar yetkazish ehtimolini yuzaga keltirsa, jabrlanuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxs sudga murojaat qilib, xavf tug‘dirayotgan faoliyatni taqiqlashni talab qilishi mumkin. Misol bilan tushuntiradigan bo'lsak qishloq dalasiga yaqin joyda kimyoviy moddalarni saqlash ombori qurilmoqda. Bu moddalarni to‘kilish xavfi bo‘lsa va atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkinligi aniqlansa, jabrlanuvchilar sudga murojaat qilib omborni qurishni taqiqlashni so‘rashi mumkin yokin bo'lmasam daryo bo‘yida kimyoviy chiqindilarni to‘kadigan ishlab chiqarish zavodi qurilishi rejalashtirilgan.

Mahalliy aholi sudga da’vo keltirib, zavod faoliyatini boshlashni oldindan to‘xtatishni talab qilishi mumkin.

Agar zarar yetkazilayotgan faoliyat davom etsa, sud zarar yetkazuvchi shaxs yoki tashkilotdan zararni qoplashni talab qilishi bilan birga, faoliyatni to‘xtatish yoki tugatish majburiyatini ham yuklashi mumkin. Masalan ma'lum bir mahalla yaqinida joylashgan zavod havoni doimiy ravishda ifloslamoqda va aholi salomatligiga zarar yetkazmoqda. Sud zarar qoplashni buyuradi va zavodning ishlashini to‘xtatish yoki ekologik talablarni qondirguncha faoliyatni vaqtincha to‘xtatib turishni talab qilishi mumkin.

Agar faoliyatni to‘xtatish jamiyatning keng qamrovli manfaatlariga zid bo‘lsa sud faoliyatni to‘xtatish haqidagi da’voni rad etishi mumkin. Lekin bu jabrlanuvchilarning zarar qoplash huquqini bekor qilmaydi. Faraz qiling hududga elektr energiyasini yetkazib beruvchi yagona elektr stansiyasi faoliyati atrof-muhitga zarar yetkazmoqda. Uni to‘xtatish butun mintaqani elektrsiz qoldirishi mumkin. Bunday holatda sud stansiya faoliyatini to‘xtatishni rad etsa ham, jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin.

Endi zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratda zarar yetkazish holatlarini ko'ramiz. Agar zaruriy mudofaa holatida zarar yetkazilgan bo‘lsa va mudofaa chegarasidan chiqilmagan bo‘lsa, zarar to‘lanmaydi, lekin uchinchi shaxsga zarar yetkazilgan taqdirda uni tajovuz qilgan shaxs qoplaydi. Oxirgi zarurat holatida esa zarar tahdidni boshqa vositalar bilan bartaraf etish imkoni bo‘lmasa, zarar yetkazgan shaxs tomonidan qoplanadi, biroq sud bu majburiyatni zarurat sababli harakat qilgan uchinchi shaxsga yuklashi yoki ikki tomonning javobgarligini yengillashtirishi mumkindir. Shuningdek birgalikda zarar yetkazgan shaxslar jabrlanuvchi oldida solidar javobgar bo‘lib, sud zaruratga ko‘ra ularga hissali javobgarlik yuklashi mumkin hisoblanadi zarar to‘lagan shaxs esa boshqalardan o‘z ulushiga mos tovon talab qilishga haqli.Ammo zararni davlat to‘lagan hollarda, davlat zarar yetkazgan mansabdor yoki aybdor shaxslarga sud hukmi asosida regress huquqini qo‘llash orqali tovonni qayta talab qilishi mumkin. Uy hayvonlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik ham mavjud. Bu holatda hayvonning mulkdori yoki uni vaqtinchalik nazorat qiluvchi shaxsning hayvon sabab bo‘lgan zararlarni qoplash majburiyati tushuniladi. Quyida misollar bilan tushuntirsam. It misolida ko'radigan bo'lsak agar kimningdir iti boshqa odamni tishlab olgan bo‘lsa yoki uning kiyimlarini yirtib yuborsa, itning egasi ushbu zarar uchun javob beradi. Sigir yoki qo'yning ekinga zarar yetkazishi holatlari ham bo'lishi mumkin bunda agar biror kishining sigiri yoki qo'yi qo‘shnining ekin maydoniga kirib, hosilni payhon qilsa, sigirning egasi ekinga yetkazilgan zararni to‘lashi lozim. Yoki mushugiz bo'lsayu u qo‘shnining mebelini tirnalab shikastlasa, mushukning egalik qiluvchisi bu zarar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi kerak.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar (delikt huquqi) bo‘yicha chet el tajribasi qanday? Ularning qonunchiligida bu qanday amalga oshiriladi? Ayniqsa rivojlangan davlatlarda, o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Keling ayrim mamlakatlar va ularning delikt huquqidagi tajribasi bilan tanishamiz.

AQShni oladigan bo'lsak aynan AQSHda

Common Law tizimi amal qiladi. Bu tizim orqali zarar yetkazish bo‘yicha majburiyatlar ko‘p hollarda sud qarorlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Undan tashqari Tort Law ham mavjud bo'lib u uch asosiy turga bo'linadi:

-Intentional Torts (qasdiy zarar yetkazish).

-Negligence (beparvolik tufayli zarar yetkazish).

-Strict Liability (aybdorlik talab qilinmaydigan javobgarlik, masalan, xavfli mahsulotlar tufayli zarar yetkazish).

Bunda jazo xarakteridagi kompensatsiya ya'ni punitive damages keng qo‘llaniladi, bu esa zarar yetkazuvchilarni jazolash va oldini olish maqsadida ko‘riladi. Shu sababli ham bu holat AQSh qonunchilik tizimi bilan belgilanadi. Bundan tashqari Angliya huquqi ham Common Law tizimiga asoslanadi. Unda zarar yetkazish bo‘yicha javobgarlik asosan:

-Negligence (beparvolik).

-Occupiers’ Liability (yer egasi javobgarligi).

-Product Liability (mahsulotlar sifatsizligi) asosida belgilanadi.

Germaniyada esa bu holat Germaniya fuqarolik qonunchiligiga binoan (BGB) delikt huquqi batafsil tartibga solinadi. Bunda aybdorlik prinsipiga binoan zarar yetkazuvchi aybdor bo‘lishi kerak. Ammo faqat haqiqiy zarar qoplanadi.

Fransiya huquqi Civil Law tizimiga asoslangan va zarar yetkazish bo‘yicha majburiyatlar Fransiya Fuqarolik Kodeksida belgilangan. Bunda asosan jabrlanuvchi va zarar yetkazuvchi o‘rtasidagi aloqani isbotlash talab qilinadi va bu holat causal link deb nomlanadi. Ammo beparvolik va qasddan yetkazilgan zarar uchun ham javobgarlik belgilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar huquqiy tizimda fuqarolarning va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishning muhim qismidir desak adashmaymiz. Negaki bu haqidagi normalar g‘ayriqonuniy harakatlar yoki harakatsizlik oqibatida yetkazilgan zararning qoplanishini ta’minlashni nazarda tutadi. Zarar yetkazuvchi shaxsning javobgarligi u tomonidan sodir etilgan harakatlarning noqonuniyligi va uning oqibatida zarar yuzaga kelganligi bilan bog‘lanadi. Shu bilan birga, qonunchilik zarar yetkazuvchi bo‘lmagan shaxslarga ham javobgarlikni yuklash imkonini beradi, bu holatda jabrlanuvchilar manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zarar yetkazuvchi o‘z aybining yo‘qligini isbotlash orqali javobgarlikdan ozod bo‘lish huquqiga ega bo‘lsa-da, ayrim holatlarda, aybsizlikka qaramay, zararni qoplash majburiyati belgilanishi mumkin. Bu, ayniqsa, jamoatchilik manfaatlarini ta’minlash yoki faoliyatni nazorat qilish masalalarida muhim ahamiyatga egadir. Kelgusida zarar yetkazilishining oldini olish ham qonun bilan tartibga solinib, xavf manbaini bartaraf etish uchun sudga tegishli vakolatlar beriladi. Shu tariqa, ushbu normalar jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash bilan birga, jamoatchilik manfaatlarini balanslashga yo‘naltirilgan murakkab mexanizmni tashkil etadi. Shunday ekan zarar yetkazishdagi holatlar shu tariqa amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi
3. Online.zakon
4. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik vikipediya